ATROPA BELLADONNA NING GULLASH BIOLOGIYASI

Saidova Sarvinoz Abdullayevna[1]., Matyakubov Zafarbek Sharipovich[2]
Urganch davlat universiteti magistranti[1]
Muvahhida18101998@gmail.com
Xorazm Ma’mun akademiyasi[2]
m.zafar88@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.15597183

Annotasiya. Ushbu maqolada Xorazm sharoitida *Atropa belladonna* birinchi vegetatsiya yilida generativ davrga o‘tdi va bu davr I-variantdagi o‘simliklarda 98-107 kun, II-variantdagi o‘simliklarda 70-80 kun, umumiy vegetatsiya davri har ikki variantda 220-230 kunni tashkil etdi. Ikkinchi va uchinchi vegetatsiya yillarida quyosh sharoitdagi o‘simliklarning umumiy vegetatsiyasi 10-20 kunga, soya sharoitidagilarniki esa 5-6 kunga cho‘zilishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Generativ, vegetatsiya, virginil, ontogenez, potensial.

Аннотация. В данной статье в условиях Хорезма Atropa belladonna вступила в генеративный период в первый растительность год, и этот период составил 98-107 дней у растений I варианта, 70-80 дней у растений II варианта, а общий растительность период в обоих вариантах составил 220-230 дней. Установлено, что во второй и третий годы вегетатци общая вегетатци растений в солнечных условиях длится 10-20 дней, а в теневых - 5-6 дней.

Ключевые слова: Генеративный, вегетативный, виргинальный, онтогенез, потенциал.

Abstract. This article, in Khorezm conditions, Atropa belladonna entered the generative period in the first vegetation year, and this period was 98-107 days in plants of option I, 70-80 days in plants of option II, and the total vegetation period was 220-230 days in both options. It was found that in the second and third vegetation years, the total vegetation of plants in sunny conditions lasts 10-20 days, and those in shadow conditions last 5-6 days.

Key words: Generativ, vegetation, virginil, ontogeny, potential.

Hozirgi kunda respublikamizda yuzdan ortiq farmatsevtika korxonalari mavjud bo‘lib, aholiga sifatli dori darmon etkazib berish uchun ularni dorivor o‘simlik xom ashyolari bilan ta’minlash muhim masala hisoblanadi. Ularni mahalliy xom ashyo bilan ta’minlash uchun dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va introduksiya qilish natijasida amalga oshirish mumkin.

Introduksiyalashtirilayotgan o‘simliklarning gullash jarayonini, gullarning changlanishini o‘rganish ularni ekologik va bioligik jihatdan tavsiflashga imkon beradi. Ko‘pchilik olimlarning izlanishlari natijasidan bergan ma’lumotlariga ko‘ra, hashoratlar, shamol yordamida yoki o‘zaro changlangan o‘simliklardan sun’iy yo‘l bilan changlanishining afzalligi, gullarining morfologiyasidagi va biologiyasidagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlik xususiyatlarini keltirib chiqaradi [1].

O‘simliklarning gul tuzilishi, gullash biologiyasi, changlanish usullari va changdonlarning etilish vaqtlarini o‘rganish – ulardagi seleksiya ishlarini olib borishda muhim ahamiyatga ega [2].

R.E. Levinaning [4] fikricha, o‘simliklarning gullash biologiyasi – ular reproduktiv biologiyasining bir qismidir va uni o‘rganish botanika fani uchun muhim ahamiyatga ega.

Gullash fazasi eng asosiy faza hisoblanib, u o‘zida barcha fenofazalar bog‘liqligi va o‘simlikning yangi muhitga moslashishini mujassamlashtiruvchi tizimdir [3]. *Atropa belladonna* ning gullash biologiyasiga oid ma’lumotlarni adabiyotlarda uchratmadik. O‘simlikning gullash biologiyasi etarlicha o‘rganilmagan.

Atropa belladonna gulining morfologiyasi. O‘simlikning guli ikki jinsli, egilgan, qisqa gulbandi va novda bilan bargning (qo‘ltig‘iga) orasiga joylashgan va II, III, IV va V-tartibli novdalarning barg qo‘ltig‘idan shakllana boshlaydi. Guli aktinomorf, to‘g‘ri, yakka ba’zan juft bo‘lib, akropetal tartibda gullaydi. Gulbandi qattiq bezli tuklar bilan qoplanib, uzunligi kosachabarglari bilan barobar, ba’zida uzunroq (2 sm uzunlikda) bo‘ladi. Kosachabarglari chuqur besh bo‘lakli, yashil rangda, bezli

tukchalar bilan qoplangan. Kosachabarglari to‘kilmaydi va meva pishishigacha saqlanadi. Meva pishishi davomida o‘sib, yulduzsimon shaklga ega bo‘lib qoladi. Kosachabarg bo‘laklari tuxumsimon, uchli, ulardan bittasi boshqalariga nisbatan biroz katta. Tojibarglari silindrsimon – qo‘ng‘iroqsimon, to‘kiluvchan, uzunligi 2-3 sm, eni 1,5 sm, uchki qismi besh bo‘lakka bo‘lingan va chetlari egilgan. Tojibarglarining yuqori qismi qo‘ng‘ir-binafsha yoki xira pushti, pastga (asosga) tomon tushgan sari sariq-yashil yoki sarg‘ish bo‘lib, qo‘ng‘ir binafsha rangda tomirlangan.

Urug‘chisi 1 ta bo‘lib, silliq, tumshuqchasi ustki, tuxumsimon, yonlari biroz qisilgan, ikki uyali, ko‘p sonli urug‘kurtakli. CHangchilari gulda 5 tadan, ularning barchasi tojibargning toraygan asosiga iplari bilan mahkamlangan va oxirgi changchi ipi biroz kalta bo‘ladi. CHangchi iplari oq rangli, pastki qismi tukli, uchki qismi silliq, ikki yoqlama egilgan. CHangdoni egik, ovalsimon, ikki uyali, yonlari uzunasiga ochilgan. Tugunchasi binafsha rangli bo‘lib, uzunligi tojibarg bilan barobar yoki uzunroq, yashil kurtaksimon popuklarga ega. O‘simlik g‘unchalari hosil bo‘lganda juda mayda (0,1-0,2 mm) bo‘lib, 10-12 kun ichida 2,0-2,5 sm gacha kattalashadi. Bu jarayonda kosachabarglar g‘unchadan to meva pishish davrigacha yashil rangini saqlaydi. Dastlab, kosachabarglarining yuqori qismi biroz ochiladi va tojibarglari ko‘rina boshlaydi. Bu davrda tojibarglari oqish- sariq randa bo‘lib, g‘uncha kattalashgan sari tojibarglarining yuqori qismi xira pushti tusga kiradi. O‘simlik gullari mayda hashoratlar yordamida changlanadi. Mevasi – ko‘p urug‘li, pishganda yaltiroq, qora rezavor meva.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Вавилов Н.И. Пять континентов. – Л.: Наука, 1987. – С. 15.

2. Левина Р.Е. Репродуктивная биология семенных растений. – М.: Наука, 1981. – С. 10-55.

3.Пономарев А.Н. Изучение цветения и опыления растений // Полевая геоботаника. Под ред. Е.М. Лавренко, А.А. Корчагина. – М.-Л.: АН СССР, 1960. – С. 9-11.

4. Рахимова Т.Т. Эколого-биологические особенности видов рода Artemesia из подрода Seriphidium (Bess) Rouy. и перспективы их использования: Автореф. дис. ... док. биол. наук. – Ташкент. 1995. - 45 с.